
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Ahmad Fag'oniy ko'chasidan Yoshlar saylgohi ko'chasiga o'tish uchun mo'ljallangan yerosti yo'lga suv toshayotganligi yuzasidan murojaat tarqaldi.

Mazkur murojaat shahar hokimligi va obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari tomonidan o'rganildi. Ayni daqiqalarda muammoni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

Ishchilar tomonidan yerosti yo'lidagi to'plangan suvlar nasos yordamida tortib olinib, suv yo'lga qo'yilgan trubaning nosoz qismi yangisiga almashtirilmoqda.

Tez orada muammo to'liq bartaraf etilib, piyodalarning yerosti yo'lidan foydalanishlari uchun sharoit yaratiladi.

2023-09-18 11:26:42